

Ijtimoiy pedagogikada oila tiplari va turlari

Madina Baxtiyor qizi Sodiqova
Madina Muxtarovna Aripdjanova

Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
Toshkent texnologiya va menejment instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jamiyatning maqsadli faoliyati jarayonida insonning shart-sharoit yaratuvchi harakat munosabatlari. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksi mamlakatda baxtli oila yaratish huquqiy asosi. Oila- bu birgalikda yashaydigan odamlar guruhi. Oila juftlik qonuni asosida yuzaga kelishi. Oila uni xarakterlovchi turli tiplari mezonlariga ko'ra farqlanishi. Yangi davr oilasi.

Kalit so'zlar: inson, oila, ota-ona, er-xotin, erkak-ayol, qon-qarindosh, bolachaqa, farzand, nikoh, jamiyat, ta'lim-tarbiya, kodeks, individlar, urf-odat, an'ana

Family types and types in social pedagogy

Madina Bakhtiyor kizi Sodikova
Madina Mukhtarovna Aripdzhanova
Scientific supervisor: S.Khaidarov

Tashkent Institute of Technology and Management

Abstract: In this article, education is a condition-creating action relationship of a person in the course of the purposeful activity of the society. The Family Code of the Republic of Uzbekistan is the legal basis for creating a happy family in the country. A family is a group of people who live together. Formation of a family based on the law of couples. Differentiation of the family according to the criteria of different types characterizing it. New era family.

Keywords: person, family, parents, couple, male-female, blood-relative, child, child, marriage, society, education, code, individuals, custom, tradition

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Oila sog'lom ekan jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir".

"O'zbek tilining ixoxli lug'atida" xam bu so'z er-xotin, bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. ularning bola chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, uning erkak bilan qo'shiluvidan bola chaqalari

olamga kelib, ayolmandlik yuzaga kelgan mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin, shuning uchun bu masala, binobarin oila shakllangan.

Oila - bu birga yashaydigan odamlar guruhi. Oilalar turli xil bo'lishi mumkin. Ularni turli mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin, shuning uchun bu masala bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Oila turlari klassifikatsiyasiga ko'ra hozirgi zamon oilasi "Monogam oila" lardan iboratdir. Biroq hozirgi zamon monogam oilasi ham o'z navbatida bir-biridan tuzulishi, tarkibi, mohiyati va boshqa xususiyatlariga ko'ra yana bir qator turlarga bo'linadi. Hozirgi zamon oilalarning qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarni oldini olish imkonini beradi.

Oilaning ibtidoiy ko'rinishlari sanaluvchi qon-qarindosh oila, undan keying bosqichda esa punaunal oila, ya'ni bir guruhga mansub opa-singillarning boshqa jamoa guruhidagi erlarga xotinlik qiladigan oila dastlab oiladan iborat demoglafik birlikni anglatadi. Kishilik jamiyatning ilk iptidoiy bosqichda poligan oilada monogam oilaga o'tish jarayonida yuzaga kelgan endoganik nikoh ya'ni ibtidoiy urug'chilik tuzumida qabila ichidagi guruhiy nikohdan bir qabilaga mansub erkak va ayol nikohidan chetlanish, aniqrog'i o'ziga qabila qizi bilan nikohlanishiga asoslangan ekzogam nikohga o'tish insoniyatda nomus tuyg'usini anglash naqadar uzoq vaqt davom etgan jarayon bo'lganini ko'rsatadi.

Oila tarixiy kategoriya sifatida kishilarni tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi bo'lib uning xilma-xil shakllari va ko'p qirrali vazifalari mavjud ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarning tabiatiga jamiyat ma'naviyatiga va madaniy taraqqiyotning darajasiga bog'liqdir. Oila ana shu asoslarga tayangan holda kishilik tafakkuri va ijtimoiy harakatning ulug' kashfiyoti bo'ldi. Mashhur faylasuf Santayana aytganidek, "Oila, bu-tabiatning shoh asarlardan biri"ga aylandi.

Oila er-xotindan tashqari, erning ota-onasi, farzandlari, uka-singillaridan iborat ko'p bo'g'inli xonadan. Uning har bir a'zosi mavqeiga ega hisoblanadi. Oila bu jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: bunda minglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbati sinovdan o'tadi. Oila bir-birini chuqurroq tushunib, qadrlashib, kechirimli bo'ladi. Er otaga, xotin onaga aylanadi, farzand tarbiyalanib orzu havaslar qurishadi. Oila inson hayotida to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat chashmasiga aylanadi.

Oila uni xarakterlovchi turli tiplari mezonlariga ko'ra quydagilarga farqlanadi: Turli mamlakatlarda bu mezonlar turlichadir. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila. Qayliqlarning ota-ona oilasi: (ota-onasi) ning moddiy ta'minlanganlik darajasi jifatdan qudalarning bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi

bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lmagan oilalar. Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra: ajralish saviyasida, nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo'lgan oila, o'rta saviya va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oilalar. Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko'ra: er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oilalar. Oila er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar. Er-xotinlarning millatiga ko'ra: bir millati yoki baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: dini, urf-odatlar yoki tili bir gutuhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar, masalan: o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar, dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar, masalan: o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalardir. Obyektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilayapti), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi, yuridik jihaddan norasmiy oila). Nikohdan tashqari ayrim oilalarning ayrimlari pinhona bo'lsa, ko'pchiligi haqida erkak kishining birinchi oilasi vaqarindoshlari bilishadi.

Oila jamiyat nizomlari asosida yashasada, oilaviy munosabatlar mustaqil hodisasidir. Oila ishlariga birovning aralashuviga hech qanday haqqi yo'q. Shu ma'noda oila jamiyatning muqaddas va daxilsiz mustaqil muxtoriyatdan iborat saltanatidir. Bu saltanatning podshoxi-ota, vaziri-onadir. Oilaviy munosabatlar jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy, ma'naviy-ahloqiy, munosabatlar zaminida va ta'sirida kechadi: shu jarayonga xos o'zgarishlar asosida o'zgarib, takomillashib o'sib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qildilar. Bizning mamlakatimizda oila degan so'z, oila degan maskan qon-qonimizga singib ketgan. Shunga ko'ra oila qanchalik muqaddas ekanligini har bir erkak va ayol his etib yashaydilar. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa uning poydevorini buzib bo'lmaydi. Oilada har bir inson bir-birini tushunib kerakli paytda bir-biriga ko'maklashib, qiyinchilikni birga yenga olsa bu mustahkam oila bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rizouddin ibn Faxriddin, Oila, T., 1996. Ochiya Bursev, Akmal Saidov.
2. Family Research Laboratoriya (WaybackMachine saytida 2011-11-26 sanasida arxivlangan)
3. Sulaymon Amirqulovich Haydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyalashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL.5.2.B.271-275.
4. Haydarov S.A.(2023). Using technologies in teaching social sciences.

5. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

6. Haydarov, S. (2023). Pedagogika faoliyatida o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakllantirish.

7. Haydarov, S . A. (2023). TARIX DARSLARIDA SAN'AT ASARLARIDAN FOYDALANISHNING USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

8. Haydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp.41-43).

9. G'.B.Shomurodov va boshqalar, Oila psixologiyasi, O'quv qo'llanma, Sharq, Toshkent, 2008